

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

<p>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф. Абдуллаева Муборак Махмутовна, б.ф.д., проф. Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф. Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф. Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад. Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф. Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф. Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц. Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д. Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф. Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х. Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д. Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д. Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад. Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц. Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц. Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф. Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф. Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х. Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф. Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц. Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д. Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф. Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф. Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х. Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф. Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д. Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</p>	<p>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц. Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц. Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф. Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф. Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц. Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф. Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х. Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад. Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф. Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д. Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф. Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц. Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф. Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х. Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф. Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад. Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф. Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д. Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц. Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф. Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц. Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф. Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д. Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д. Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д. Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х. Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д. Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</p>
--	---

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/3 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 256 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ТАРИХ ФАНЛАРИ

Amirov E.E. Toshkent davlat yuridik universitetida o'quv – tarbiyaviy ishlarning holati	5
Boltaeva M.J. O'zbekiston tarixida qadimgi tosh asrini jahon olimlari tomonidan o'rganilishi	8
Dostov A. O'рта Osiyo allomalarining xronologiya fani rivojida tutgan o'rni	11
Gaziyeva G.M. O'zbekiston va Saudiya Arabistoni: hamkorlik tarixidan	14
Imamov B.X. O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasida sog'likni saqlash sohasini muhofaza qilishda o'zaro aloqalari	17
Kadirova Ya.B. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyot	20
Matyakubov N.R. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joy siyosati va uning huquqiy asoslari	24
Maxmanazarova F.I. Zamonaviy jamiyatda gender tengligi muammosi	27
Nasirov B.U. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida umumiy ovqatlanish maskanlari faoliyati xususida	30
Norinov M.R. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida milliy madaniy markazlar faoliyati	34
Nurmetov S.B. O'zbekiston hududining ibtidoiy manzilgohlari tarixi	36
Omonov Ya.A. Farg'onada yengil sanoat tarmoqlarining kengayib borishi	39
Qurbonov A. Ikkinchi jahon urushi arafasida O'zbekistonda xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarining rivojlanishi: muammo va natijalar	43
Radjabov F.A. Sog'liqni saqlash sohasidagi qonun buzilishlariga prokuraturaning munosabati	45
Rajapov M.Q. Afrig'iylar sulolasi zamonaviy tadqiqotlarda: yondashuvlar va muhim qarashlar	48
Raxmanova Sh.Q. Xorazm vohasiga islom dinining kirib kelishi	51
Sharifi G. Shimoliy Afg'oniston aholisining hunarmandchiligi	56
Vakhidova F.S. Holy places as pilgrimage tourism product	59
Xadjamuratova M. Yoshlarni bandligini ta'minlashning innovatsion chora-tadbirlari	61
Yallaev M.Sh. XIX -asr oxiri – XX-asr boshlarida Samarqand bozorlari faoliyati tarixidan	64
Ziyayeva D.S. Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat	67
Батошов И.К. Ўзбекистон Республикасида прокуратура идораларининг ташкил топиши тарихи	70
Васиева Д.И. Мустақилликнинг илк йилларида Ўзбекистон университетларида илмий педагогик кадрлар тайёрлаш ҳолати: муammo ва ечимлар	76
Мадреймов Е.Д. 1950-1960 йилларда Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалигининг ривожланиши масалалари	79
Насибуллина Н.Ш., Давлетов С.Р., Бабаджанов Д.К. Роль Бухары в становлении Стерлибашевского медресе	83
Очилова Г.М. Мустамлака даврида Туркистонда миллий мактабларнинг тузилиши ва турлари	88
Рахимбаева Д.В. Ўзбекистон ташқи сиёсат идорасининг ташкил этилиши тарихидан	92
Сафарова З.С. Деятельность учителей Узбекистана в суровые годы войны	97
Сулайманова С.Б. Илк ўрта асрларда Нахшаб тангалари	100
Турекеев Қ.Ж. Глобализация шароитида қорақалпоқларнинг фарзандли бўлиш билан боғлиқ анъанавий ва замонавий урф-одатлари	102
Шакиров И.Р. История сотрудничества Узбекистана и Таиланда в сфере науки, образования и культуры	105
Эгамбердиев Ф.П. Суғд воҳаси тарихига оид ёзма манбалар	108
Юлдашев Ж.Ж. XIX асрда Қуйи Зарафшонда бошланган археологик кузатишлар ва уларнинг натижалари хусусида	111
Юлчиев Б.Д. В поисках истоков: исторический взгляд на развитие микробиологии как науки в Европе	115
Қодиров Н.Н. Фуқаролик жамияти институтлари фаолиятида ёшлар фаоллиги масаласи	118
Қойилова М.Дж. Ёш авлод тарбияси- юрт келажаги гаровидир	123
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Abramatov M.B. “Biosfera haqida ta'limot. Biosferada moddalar aylanishi” mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalar o'rni	127
Amirov A.S. Yosh kurashchilarning mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarni bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati	130
Azizova M.A. Teaching vocabulary using games and quizzes	135
Bakirova H.B., Xalilova G.A. Teaching ESP vocabulary at the english classes	137
Bazarbayeva A.Sh. Methodological analysis of speech activity exercises: fostering communicative competence in students	140

2. Yuldashev O. T. "Сontinuity of innovative educational technologies and educational effectiveness." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 821-823.
3. Dosmatov T. G. "Requirements for the creation of new pedagogical technologies in education of youth students." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 814-817.
4. Dosmatov T. G. and Oktamova I.D. "Combined aggregate for working the soil before planting." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 873-876.

UO•K: 93(94).930.2

AFRIG'YLLAR SULOLASI ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA: YONDASHUVLAR VA MUHIM QARASHLAR

M.Q.Rajapov, tayanch doktorant, O'zR FA Tarix instituti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Afrig'" so'zi va sulolaning kelib chiqishi, ularning siyosiy va madaniy ta'siri, ingliz, fors va turk tilli adabiyotlarda Afrig'iyalar sulolasiga bo'lgan munosabat va turlicha yondashuvlar chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Afrig'iyalar sulolasi, Beruniy, oriylar, arxeologik tadqiqotlar, numizmatik tadqiqotlar, oli-Iroq, Banu Iroq.

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ значения слова «Африг», происхождения династии, их политического и культурного влияния, а также отношения к династии Афригидов и различных подходов к ней в английской, персидской и турецкой литературе.

Ключевые слова: Хорезм, династия Афригидов, Аль-Бируни, арийцы, археологические исследования, нумизматические исследования, Аль-Ирак, Бану Ирак.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the meaning of the word "Afrigh," the origin of the dynasty, their political and cultural influence, and the attitudes towards and various approaches to the Afrighid dynasty in English, Persian, and Turkish literature.

Keywords: Khorezm, Afrighid dynasty, Al-Biruni, Aryans, archaeological research, numismatic research, Al-Iraq, Banu Iraq.

Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixiga bag'ishlangan ishlar va yozma manbalar juda kam. Bunga izoh sifatida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asariga parchani keltirishimiz mumkin bo'lib, unda: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimlarni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilgan edi", – deyilgan [1].

Eronlik tadqiqotchilar ishlarida "Afrig'" so'zining kelib chiqishi borasida bir qancha fikrlar ilgari surilgan. Masalan, J. Mufrad Afrig' etimologiyasiga to'xtalib, Af/of/ob-suv va rig/riz esa suvni to'ldirish va to'kish ya'ni daryoning quyi oqimida yashaydigan odamlar anglatilishini ta'kidlagan [2]. Fikrimizcha, qadimgi eronliklar tomonidan Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan xalqlarni Afrig'iyalar umumiy nom bilan ya'ni suvning quyilish qismida yashaydiganlar deb atashgan. Keyinchalik bu nom sulola nomiga aylangan bo'lsa kerak nazarimizda. Chunki olib borilgan arxeologik-numuzmatik tadqiqotlarning birontasida Beruniy tomonidan qayd etilgan 22 hukmdorning birinchisi Afrig' haqida ma'lumot topilmagan. Bundan xulosa kelib chiqadiki, Afrig' shaxs nomi emas, balki joy nomiga yaqindir. Yana bir eronlik tadqiqotchi P. Azkoyiy Afrig' etimologiyasiga to'xtalib, Afrig' asli "Ap-Air-Ig" ya'ni oriylardan kelib chiqqan degan ma'noni anglatishini izohlagan [3]. Tadqiqotchi "af" yoki "ap" fors tilidagi "afrashtan" ma'nosi "ko'tarmoq"; "ar", "air" esa "Aryan" ya'ni Oriylar mamlakati; "ig" esa eroniy tillardagi munosabat qo'shimchasi bo'lib, ingliz tilidagi "-ic" yoki fransuz tilidagi "-ique", o'xshashdir degan xulolasa kelgan. P. Azkoyiy ham tadqiqotlarida Afrig'ni shaxs sifatida emas, balki Xorazm hududida yashovchi xalqqa berilgan umumiy nom sifatida tahlil qilgan. Turkshunos Z.V. To'g'onning fikricha, afrig'iyalar o'zlarini qadimiy eroniy sulolaga oid deb namoyon etishga intilishgan, islomdan avvalgi davrlarda hukm surgan Xorazmshohlar sulolasining kelib chiqishi aslida Abdallar (Eftalitlar) dan bo'lganligini ta'kidlagan. [4] Biroq nima uchun bunday xulosaga kelganini asoslab bera olmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Afrig'iylar sulolasining kelib chiqishga oid fikr-mulohazalar va yondashuvlar turlicha bo'lib, ularni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin. 1) eroniy sulola sifatida talqin qilish; 2) turkiy sulola sifatida talqin qilish; 3) sulolaning mavjudligini inkor qilib, afsonalarga bog'lash.

Tadqiq etilayotgan sulolani eroniy sulola sifatida talqin qilish Eron va G'arb tarixshunosligida keng tarqalgan. Bunday xulosaga kelishda, Beruniy tomonidan qayd etilgan Siyovush bilan bog'liq ma'lumotlarni asos qilib olishadi. Eronlik tadqiqotchi T.Daryoyiy Sosoniy an'alarining ta'siri va tarixning qudrati islom davrida ham saqlanib qolganligini, hatto asli turkiy bo'lgan G'aznaviylar ham sosoniylarning so'nggi shohi Yazdigird III oilasi bilan nikoh aloqalari borligini, Tohiriylar esa fors qahramoni Rustam; Safforiylar sulolasi Eron shohi Jamshid; Afrig'iylar Xorazmshohlari ularni qahramon Siyovush bilan bog'laydigan afsonaga ega ekanligini ta'kidlagan[5]. Turaj Daryoyiy yuqorida tilga olingan sulolarning kelib chiqishini asli eroniy sulola ekanligiga urg'u bergan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'rta asrlarda legitimatsiya uchun ba'zan hukmdorlar o'zlarini tarixda o'tgan mashhur sulolalarga bog'laganliklarini ham e'tiborga olishi kerak. Masalan, g'aznaviy kelib chiqishi turkiyligi aniq bo'lgan holda, o'zlarini eron shohlari bog'lagan holatlar ham uchraydi. K.E. Bosvord Afrig'iylar sulolasining paydo bo'lishiga bevosita to'xtalib, sulolaga oid ma'lumotlarning aksariyati faqat Beruniy tomonidan yozib qoldirilganligi va uning ishonchligini shuhba ostiga oladi va al-Beruniy haqiqatda islomgacha bo'lgan Xorazm tarixini yaxshi bilmasligini keng qamrovli sovet arxeologik topilmalaridan Afrig' nomining yo'qligini misol qilib ko'rsatadi [6].

Milliy va turk tilli tadqiqotlarda turkiy sulola sifatida e'tirof etish holatlari kuzatiladi. Bunga Beruniy tomonidan Afrig'iylar sulolasining 22 ta hukmdor nomining tilshunoslik tahlili asosida, ismlarning o'zagi turkiycha (Afrig'dan boshqa) ekanligi bilan izohlashga harakat qilishadi. Masalan, Beruniy ro'yxatida keltirilgan 22 afrig'iy hukmdor nomlarini tilshunoslik nuqati nazardan tahlil qilish asosida hukmdorlarni eroniy yoki turkiy sulolaga taaluqli ekanligiga oydinlik kiritish maqsadida G'. Boboyorov tadqiqot ishlarini olib borgan. Askajamuk, Arsamux, Turkasabos, Xangiri, Bag'ra (Bo'g'ra), Buzgar, Shovush (Chovush) asli turkiy bo'lishi mumkin degan fikrlarni ilgari surgan [7]. O.I. Smirnova, Turkasbos ismining lug'aviy ma'nosi "turk lashkarining sohibi" ekanligini ilgari suradi [8]. Ba'zi tadqiqotchilar Turksanfning asl ismi turkiychada Turk shad bo'lib, Istami xoqonning o'g'lidir, deb fikr bildiradilar [9]. Beruniy ro'yxatida keltirilgan Xangiri, Bag'ra (Bo'g'ra), Buzgar, Shovush (Chovush) singari ismlar ham asli turkiy bo'lishi mumkin. Xorazm hukmdorlaridan birining ismi Bag'ra (ehtimol Bo'g'ra) Turk xoqonligi unvonlar tizimiga xos "Erkak tuya" ma'nosidagi bo'g'ra epiteti bilan aloqali bo'lishi mumkin deya fikr bildirgan. [9]

Keyingi tadqiqotchi Aykut O'zbayraktar Beruniy tomonidan keltirilgan 22 ta afrig'iy xorazmshohlarni xorazmshoh emas balki, manbalarda tilgan olingan oxirgi afrig'iy xorazmshoh Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning shajarasidir degan fikrni ilgari surgan [10]. Tadqiqotchi 305-995-yillarda mavjud bo'lgan Afrig'iylar sulolasini 3 guruhga ajratgan: 1) Islomdan odingi ajdod Afrig' oilasi (305-711-yillar); 2) Olis ajdod Askajavar oilasi(712-896-yillar) ; 3) Yaqin ajdod Iroq oilasi (897-995-yillar). Muallif tadqiqotlarida Xorazmshoh Abdulloh Muhammad ibn Ahmad haqiqatan ham yigirma ikki avlod (691 yil) hukmronlik qilgan qadimiy sulolaning so'nggi vakilimi yoki oli-Iroq xonadining nasl-nasab aslzodalikni ta'kidlash uchun to'qilgan ismlar ro'yxatimi degan savolni o'rta tashlaydi [11] va o'zi guruhlarga bo'lgan xorazmshohlar xonadoning birinchi oilasini (Afrig'iylar oilasi kelib chiqishini eroniy qolgan 2 tasini (Askajavar va oli-Iroq) turkiy sulola sifatida talqin qiladi.

Afrig'iylar sulolasini tangashunoslik nuqtai-nazardan tahlil qilgan tadqiqotchilar sulolaning mavjudligini ko'p hollarda inkor etib, Beruniy ma'lumotlarida keltirilgan Afrig' shaxsini afsona ekanligini ta'kidlashadi. E.V. Rtveladze ham Afrig'iylar sulolasining paydo bo'lishi haqida so'z yuritib, Beruniy asaridagi ma'lumotlarni arxeologik va numuzmatik materiallar asosida qiyosiy tahlil qiladi. Beruniyning ma'lumotlaridan foydalangan holda E.V. Rtveladze Xorazm tarixiga oid ilmiy nashrlarda qabul qilingan fikrlarga qo'shilmagan va bir qancha muhim xulosalar chiqaradi. Tadqiqotchining fikricha, Beruniy Afrig'ning hokimiyat tepasiga kelishi haqida hech narsa aytmagani, faqat Iskandar davrining 616-yilida (milodiy 305-yilda) al-Fir ustida o'z saroyini qurdirganini aytadi. E.V. Rtveladze Beruniy ma'lumotlarini "yarim afsonaviy" ma'lumotlar qatoriga

qo'shadi va S.P.Tolstov tomonidan "podsho Afrig'" –deb o'qilgan tangani B.I. Vaynberg va V.A. Livshis tomonidan "Bivarsar" (bwrsr) nomi bilan tuzatilgan holda o'qilishi III asr boshi – IV asr oxirida Xorazmda zarb qilingan tangalarda Afrig' nomi yo'qligini to'liq ko'rsatishini ta'kidlaydi [12, 13]. Muallif fikricha Beruniy ma'lumotlariga ko'ra Afrig'ning hukmronlik yillarida milodiy 304-305-yillarga, biroq tangashunoslik materiallarida Xorazm kumush tangalarida o'qilgan shoh Vazamar nomiga to'g'ri kelishini istisnosiz holda ta'kidlaydi. Uning fikricha, Vazamar bu-hukmdor nomi, Afrig' esa sulola nomi. Vazamar nomi numuzmatik materiallarda o'z aksini topgan bo'lsa, Afrig' nomi Beruniy ma'lumotlarida uchraydi. E.V. Rtveldze Afrig'iylar sulolasi nomini Vazamariylar sulolasi nomiga almashtirishni taklif qiladi.

Umuman keying yillarda tadqiqotchilarining ishlarida "Afrig'iylar sulolasi" o'rinda oli-Iroq /banu Iroq yoki Iroqiylar atamasi qo'llaniladi. P.Askoyiy Somoniylar ko'magida tashkil etilgan oli-Iroqni Afrig'iylar sulolasi davomi sifatida ta'kidlasa[14], R.Eduard Ma'muniylar va oli-Iroq (Iroq oilasi)ni bir sulola sifatida ta'kidlagan[15]. A.V.Kuznestsov, M.Fedorov ishlarida Afrig'iylar sulolasining mavjud bo'lganligiga shubha bilan qarashadi va oli-Iroq o'zining legitimligini mustahkamlash uchun Afrig'iylar sulolasini to'qib chiqarishgan degan xulosaga kelishidi [16]. A.O'zbayraktar, J.Heravilar tadqiqolarida sharqiy eroniy sulola hisoblangan Afrig'iylar tanazzulidan keyin oli-Iroq Ismoil Somoniy ko'magida yangi tashkil etilgan turkiy davlat deya hisoblashadi [17]. Bizning fikrimizcha, oli-Iroq bu Afrig'iylar sulolasining davomi hisoblanadi.

Yuqoridagi aytilgan fikr va mulohazalarni tahlil qilish asnosida "Afrig'" so'zi etimologiyasi J.Mufrad ta'kidlanganidek suv bo'yida yashaydigan ma'nosiga yaqin. Bizningcha "Afrig'" so'zi eronliklar tomonidan Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan xalqlarga nisbatan qo'llanilgan hudud nomidir. Arxeologik tadqiqotlar davomida sulola asoschisi sifatida e'tirof etilgan Afrig' haqida hech narsa aniqlanmaganiga qaramay, birlamchi manba Beruniy asarida keltirilgan ma'lumotlarni inkor etib bo'lmaydi. Shuningdek, A.O'zbayraktarning sulola etimologiyasiga oid bo'lgan fikr-mulohazalarni ma'lum bir ma'noda to'g'ri deb hisoblashimiz mumkin Bizningcha, Beruniy oxirgi afrig'iy hukmdor Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning hokimiyatga qanday kelganligini o'ziga xos legitimatsiya orqali tushintirish uchun ushbu shajarani tuzib chiqqan.

Tadqiqotlarimizda afrig'iylar sulolasining kelib chiqishiga oid turli talqinlar o'rganilib, tarixchilarning fikr-mulohazalari bir necha guruhlariga bo'linganini guvohi bo'ldik. Tilshunoslik tahlili esa eron va turkiy ta'sirlarning qorishmasidan dalolat beradi, ayrim nomlar turkiy kelib chiqishini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda sulola tarixi va uning mintaqa ijtimoiy-siyosiy roli haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish uchun arxeologik va numuzmatik tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т.1, «Памятники минувших поколений» ,Ташкент , Изд-во АН УзССР,1957.с-72
2. Javad Mofrad. The meanings of the names of the rivers Sirdarya and Amodarya Iran – Iranshahr. P.1-4
3. Perviz Ezkâyi. "Hânedân-ı Şâhiye-i Hârezm". Mecelle-i İrân-Şinâht. S. 10. Kısım-i Evvel.s.141
4. Togan Z.V. Umumî Türk Tarihine Giriş. İstanbul, 1981. S. 60
5. Touraj Daryae & Khodadad Rezakhani. From Oxus to Euphrates: The World of Late Antique Iran. Vol 1. H&S Media.UK.2016.p 9.
6. Bosworth, Clifford Edmund (1984a). "Āl-e Afrīg". Encyclopaedia Iranica, Vol. I, Fasc. 7. pp. 743–745
7. Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 50.
8. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. М.: Наука, 1981. С. 425, 428; Грицина А.А. Усрушанские были. Ташкент, 2000. С. 43
9. Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 50-52
10. Aykut Özbayraktar. Afrig' Hanedanı: Hârezmşâh II. Muhammed'in Soyağacı Üzerine Bir İnceleme. İran Çalışmaları Dergisi. Cilt: 7, Sayı: 1.2023. , ss. 151-172
11. Cevâd Heravi, Aykut Özbayraktar. Āl-i 'İrāk (Hârezm'de Sâmanîlere tâbi yüz yıllık bir iktidar hakkında yeni bir araştırma). ASOBİD. Cilt 2, Sayı 4 Aralık 2018 ss.61-73
12. Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма// Хорезм в государственности Узбекистан. – Ташкент, 2013. С. 94.
13. Вайнберг Б.И. Монеты...; Каталог. С. 116, № 207, X VII, VII
14. Perviz Ezkâyi. "Hânedân-ı Şâhiye-i Hârezm". Mecelle-i İrân-Şinâht. S. 10. Kısım-i Evvel.s.141

15. Zâmbâur, Eduard R. (1356). Neseb Nâme-i Hulefâ ve Şehriyârân. (trc. ve thş. Muhammed Cevâd Meşkûr). Tahran: Hayyâm.
16. Andrew Kuznetsov and Michael Fedorov. Late drachms of the khwârazmshâh Azkâjvâr and imitations of such drachms Source: Iran, Taylor & Francis .Vol. 51 (2013), pp. 145-149.
17. Cevâd Heravi, Aykut Özbayraktar. Âl-i 'Îrâk (Hârezm'de Sâ mânîlere tâbi yüz yillik bir iktidar hakkında yeni bir araştıрма). ASOBİD. Cilt 2, Sayı 4 Aralık 2018 ss.61-73

UO'K 93/94

XORAZM VOHASIGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI

Sh.Q.Raxmanova, o'qituvchi, Ma'mun-Universiteti, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchi, o'zining boy o'tmishi davomida turli madaniyatlar va dinlarning bo'lganligini hamda Xorazm vohasiga islom dinining kirib kelishi masalasi tarixini o'rgandi. Maqolada islom dinining ilk qadamlari, islomning asta-sekin tarqalishi va ara blarning mintaqada olib borgan siyosati hamda voha aholisining bu siyosatga munosabati haqida umumiy ma'lumot berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: islom, O'rta Osiyo, Xorazm, tarix, istilolar, jizya, xiroj, Qutayba, Narshaxiy, Beruniy, Muqanna, Abu Muslim, Xuroson, Hurzod, Chag'on, Mazdak, istilo, ajam.

Аннотация. В данной статье исследователь изучил существование различных культур и религий на протяжении богатого прошлого Хорезмского оазиса и историю внедрения ислама. В статье представлены общие сведения о первых шагах исламской религии, постепенном распространении ислама и политике арабов в регионе, а также об отношении жителей оазиса к этой политике.

Ключевые слова: Ислам, Средняя Азия, Хорезм, история, завоевания, джизья, хиродж, Кутайба, Наршахи, Беруни, Муканна, Абу Муслим, Хорасан, Хурзад, Чаган, Маздак, завоевание, послушник.

Abstract. In this article, the researcher studied the existence of different cultures and religions during the rich past of Khorezm and the history of the introduction of Islam to the oasis. The article aims to provide general information about the first steps of the Islamic religion, the gradual spread of the Islamic religion, the policy of the Arabs in the region, and the attitude of the people of the oasis to this policy.

Key words: Islam, Central Asia, Khorezm, history, conquests, jizya, khiroj, Qutayba, Narshahi, Beruni, Muqanna, Abu Muslim, Khurasan, Hurzad, Chagan, Mazdak, conquest, ajem.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston turli din va madaniyatlarni o'z ichiga olgan uzoq tarixga ega mamlakatdir. Bugungi kunda mintaqadagi asosiy dinlardan biri bo'lgan islom dini O'zbekistonga ilk o'rta asrlarda kirib kelgan. VII-VIII asrlardagi islom dinining kengroq O'rta Osiyo mintaqasiga, jumladan, hozirgi O'zbekistonga tarqalishi boshlanadi.

VII asr boshida Arabiston yarim orolida katta bir markazlashgan va nufuzli musulmon davlati tashkil topib yangi diniy ta'limot asoschisi Muhammad payg'ambar rahnamoligida arablarni siyosiy jihatdan birlashishga olib keldi. Tez vaqt ichida arablar islom bayrog'i ostida uyushib qo'shni mamlakatlarga xavf sola boshladilar. Ular Suriya, Misr, Vizantiya, Eron mamlakatlariga shiddatli hujum uyushtirib, o'zaro to'qnashuvlar va nizolar oqibatida zaiflashgan bu o'lkalarni osongina istilo qilishga muvaffaq bo'ldilar. Eron sasoniylari davlati shiddatli va surunkali janglar natijasida 665-yilda arab istilochilari tomonidan bosib olindi. Arablar 665-yilda Marvga yetib keldilar va bu yerda mustahkam o'rtnashib olib, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarni zabt etishga kirishdilar. O'rta Osiyoga arab istilolari 671-yildan boshlanadi. Amudaryo ortiga birinchi bo'lib Ubaydulloh ibn Ziyod yurish boshlab, Poykand va Buxoroni egallab, katta o'ljalalar bilan qaytdi. 676-yilda esa Said ibn Usmon Buxoro va Sug'diyonaga hujum boshlaydi.

O'rta Osiyoga qarshi hujumlar Xuroson valisi Qutayba tomonidan uyushtirilgan edi. Bu davrda arablarning Xurosondagi valiyi Marvda turar edi. Arab xalifaligi Movarounnahr ishlarini boshqarishni ham Xuroson valisiga topshirgan edi. VII asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo mayda